Ilmiy tadqiqotlar va ularning yechimlari jurnali
Aoka guvohnoma № 323759 ISSN: 3060-4818

SUN'IY INTELLEKT KELAJAKDA YURISTLAR O'RNINI EGALLAYDI?

Azimova Sevara Azizxon qizi
Toshkent davlat yuridik universiteti,
Biznes huquqi va sud himoyasi
fakulteti 2-kurs talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.24338327

2023-yilda Nyu-Yorkdagi federal sudga Mata v. Avianca ishi bo'yicha ariza topshirildi. Unda olti sud qarori misol qilib keltirilgan, har birida sudya ismi, ish raqami, hatto iqtiboslar bor edi. Muammo shundaki bu ishlarning birortasi ham aslida mavjud bo'lmagan. Advokat ularni ChatGPT dan olgan va hattoki tekshirib ham o'tirmagan. Sudya esa P. Kevin Castel ikki advokat va ularning firmasiga 5000 dollar jarima soldi (2023-yil iyun).

Bu hodisa SI va yuristlar mavzusidagi yangi davrni boshlab bergan voqea bo'ldi. Bir tomondan, hikoya kulgili: mashina «o'ylab topgan» ishni advokat sudga olib kirdi. Ikkinchi tomondan, u jiddiy savol tug'diradi: agar SI hujjat yoza oladigan, tahlil qiladigan bo'lsa, yuristga ehtiyoj qoladimi?

Xo'sh, raqamlar bu haqda nima deydi?

Mashina xato qiladi, hatto yuristlarga mo'ljallangan mashina ham. Stanford universiteti tadqiqotchilari (Magesh va boshqalar) 2024-yilda yuridik tadqiqot uchun yaratilgan mashhur SI vositalarini sinab, ularning "gallyutsinatsiya" (uydirma ma'lumot berish) darajasini o'lchagan. Natija: Lexis+ AI taxminan 17 foiz, Westlaw'ning SI vositasi taxminan 33 foiz holatda noto'g'ri yoki asossiz ma'lumot bergan. Umumiy maqsadli chat-botlar esa yuridik savollarda ancha ko'proq xato qilgan. Tadqiqot 2025-yilda "Journal of Empirical Legal Studies" jurnalida nashr etildi.

Sudlar buni ayniqsa jiddiy qabul qilmoqda**.** Fransuz tadqiqotchisi Damien Charlotin sudlarda aniqlangan SI "uydirmalari" bilan bog'liq holatlar bazasini yuritadi. 2025-yil o'rtalarida unda yuzga yaqin ish bor edi, 2026-yil yanvarda taxminan 700 ta, sentabr oxirida esa 2000 dan oshdi. Uchinchi tomon tahlillariga ko'ra, 2026-yil oktabr oxirida bazada 2200 dan ortiq qaror bor va ularning katta qismi (taxminan 1270 tasi) o'zini o'zi himoya qilayotgan shaxslarga, 870 tasi esa advokatlarga tegishli. Jazolar ham og'irlashdi. 2026-yil martda AQSh Oltinchi apellyatsiya sudida ikki advokatga 30 ming dollar jarima solindi, boshqa holatlarda esa advokatlar muayyan sudlarda ishtirok etishdan chetlatildi.

Shunga qaramasdan SI ning foydali tomoni ham katta. Goldman Sachs 2023-yilda hisobotida yuridik sohadagi vazifalarning taxminan 44 foizini nazariy jihatdan avtomatlashtirish mumkinligini baholadi. Bu boshqa sohalarga nisbatan yuqori ko'rsatkich. Bu 44 foiz ish o'rinlarining yo'qolishi degani emas, balki avtomatik vazifalarning va ishning bir qismi mashinaga o'tishi deganidir.

SI yuristni almashtira oladimi, deb so'rashdan oldin, yuristning ishini qismlarga ajratib chiqishimiz zarur. Mehnat iqtisodchilari, jumladan David Autor, buni vazifalar nuqtai nazaridan tahlil qildi. Bunga:

SI yaxshi (yoki juda tez) bajaradigan vazifalar:

- hujjatlarni, shartnomalarni, yozishmalarni katta hajmda ko'rib chiqish (due diligence, e-discovery);
- standart hujjat va shartnoma loyihalarini tuzish;
- qonun va sud qarorlari bo'yicha dastlabki tadqiqot, qisqa xulosa tayyorlash;
- tarjima, matnni tahrir qilish;
- oddiy huquqiy savollarga dastlabki javoblar.

SI hozircha qiynaladigan yoki bajarolmaydigan vazifalar:

- Mas'uliyatni olish;

- Mijoz bilan ishlash;
- Muzokara va sud zalida ishlash;
- Tanlov va ustuvorlik;
- Yangi, noaniq vaziyatlar;
- Axloqiy va kasbiy qaror kabilar haligacha qolmoqda.

Mamlakatmizda ham yaqin yillarda SI nin huquqiy sohada ishlatishga qonun yo‘li bilan chegaralar kiritildi. 2026-yil 21-yanvardagi O‘RQ-1115-sonli Qonun “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi qonunga 7^1-moddani qo‘shdi. Unda ko‘ra endi SI yordamida yaratilgan axborot resurslari va SI asosidagi axborot tizimlari insonning hayoti, sog‘lig‘i, erkinligi, sha’ni va qadr-qimmatiga putur yetkazmasligi shart va inson huquq va erkinligiga aloqador yuridik ahamiyatga ega qarorlarni qabul qilishda SI yaratgan axborotga yoki SI tizimlarining xulosalariga tayanish mumkin emas.

Shunday ekan eng jiddiy xavf “yuristlar yo‘qoladi” degani emas, balki yosh yuristlarning o‘sish yo‘li qanday bo‘lishidadir. Yuqorida keltirgan vazifalarimizning hammasi yosh yuristlar uchun malaka orttirish va kasb yo‘nalishiga tushib olish uchun juda zarur hisoblanishi hech birimizga sir emas. Agar bu vazifalar mashinaga o‘tsa, o‘n yildan keyin tajribali yuristlar qayerdan paydo bo‘ladi?

Bu masala boshqa sohalarda allaqachon kuzatilmoqda. Stanford tadqiqotchilari (Brynjolfsson va boshqalar, 2025) SI ta’siriga eng ko‘p uchragan kasblarda yosh xodimlar bandligi nisbatan pasayganini ko‘rsatgan. Endilikda yuridik firmalar va ta’lim muassasalari yosh yuristlarga amaliy tajriba berishning boshqa yo‘llarini qayta o‘ylashi kerak.

Huquqshunos Richard Susskind “Tomorrow’s Lawyers” (2013) va “The Future of the Professions” (2015, Daniel Susskind bilan) kitoblarida yuridik kasb tubdan o‘zgarishini oldindan aytgan edi: standart ishlar avtomatlashadi, yangi rollar (huquqiy muhandis, huquqiy jarayon tahlilchisi) paydo bo‘ladi, mijozlar kam xarajat bilan xizmat talab qiladi. U shu jumladan, kasbning tubdan o‘zgarishini ham bashorat qilgan.

Muhim va kam e’tibor beriladigan fikr shundaki, SI huquqiy yordamga kirish imkoniyatini kengaytirishi mumkin. Hozir ko‘p odam yurist xizmatini qimmatligi tufayli ololmaydi. Sodda savollarga arzon va tez javob beruvchi vositalar bu bo‘shliqni to‘ldirishi mumkin. Lekin bu faqat ularning javoblari ishonchli va xatolari kam bo‘lgandagina foydali, aks holda odamlar noto‘g‘ri maslahat asosida zarar ko‘rish ehtimoldan holi emas.

Shuning uchun hozirgi kunda yuristlar SI ni tekshirmasdan ishlatmasliklari, SI ishlatgan hollatda esa mijoz sirini saqlanishiga amaliy vostilar ko‘rib qo‘yishi, ochiq chat-botga mijoz haqidagi ma’lumotni kiritishdan oldin xizmat shartlarini, ma’lumot qayerda saqlanishini va shaxsiy ma’lumotlar to‘g‘risidagi qonun talablarini bilib olishi va SI doimiy o‘rganib borishlari zarur bo‘larkan

Savolga hozirgi ma’lumotlar asosida javob beradigan bo‘lsak, SI yuristlar o‘rnini to‘liq bosa olmaydi, lekin yuristning ishini tubdan o‘zgartirish ehtimoli katta. Standart, takrorlanadigan vazifalar tobora mashinaga o‘tadi. Mas’uliyat, ishonch, mijoz bilan ishlash, murakkab qaror va axloqiy tanlov esa odamda qoladi.

Haqiqiy xavf SI ning yurist bo‘lib qolishida emas, yuristlarning SI ni tekshirishni to‘xtatishida. Charlotin bazasidagi ming-minglab holat shuni ko‘rsatadi: texnologiyaning o‘zi emas, balki unga ishonib tekshirmaslik zarar keltiradi. Kelajak, ehtimol, ikkita guruhga bo‘linadi. Bular SI ni o‘z ishining kuchaytiruvchisi sifatida ishlatadigan yuristlar va undan qochadigan hamda unga ko‘r-ko‘rona ishonadigan yuristlar. Birinchi guruhdagilarning ishi kamayib ketmaydi, aksincha, ular ancha qiyin va qiziqarli bo‘lib boraveradi.